

JAHOLOTGA QARSHI MA`RIFAT

Yusupova Mavlyuda Kamalovna

Kalit soʻzlar: *tuygʻu, tahdid, millat, xalq, maʼnaviyat, maʼrifat, fikrlash, ziddiyat, gʻoya, mafkura.*

KIRISH

Inson uchun eng aziz va muqaddas boʻlgan Vatanni himoya etish, uni sevis va eʼzozlash har bir insondan buyuk maʼnaviy jasoratni talab etadi. Inson maʼnaviyatga qarshi qaratilgan jaholat gʻaflatga, loqaydlik esa beparvolikka giriftor etadi. Natijada, mazkur holat insonni vatan taqdiriga nisbatan daxldorlik tuygʻusini yoʻqotish orqali uni maʼnaviyatini soʻndirishga zamin yaratadi. Mazkur holat, oʻz navbatida har qanday millat, xalqni oʻz taqdiriga raxna soluvchi tahdidlarga nisbatan muntazam ogoh, sezgir va hushyor boʻlishga hamda ularga qarshi maʼrifat va maʼnaviyat bilan javob berish borasida jiddiy fikrlashni taqozo etmoqda.

Barchamizga yaxshi maʼlumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan oʻzgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyat va qarama-qarshiliklar tobora avj olmoqda. Bugungi kunda globallashuvning shiddatli tus olishi dunyo miqyosida gʻoyaviy-mafkuraviy tahdidlarning tobora avjiga chiqishiga zamin yaratmoqda.

Jaholat — bilim va tushunchsizlik, notoʻgʻri qarashlar, xurofot va qadriyatlarning buzilishi holatidir. U jamiyat taraqqiyotiga toʻsqinlik qiladi, insonlarning rivojlanishiga salbiy taʼsir koʻrsatadi. Jaholatga qarshi kurashish esa maʼrifat — bilim, tafakkur, madaniyat va ongni oshirish orqali amalga oshiriladi. Jaholatga qarshi kurashning eng maʼqul va samarali yoʻli nima? Johilga johillik bilan qarshilik koʻrsatish yonib turgan olovga yogʻ sepish bilan barobar. Negaki, jaholat botqogʻiga botgan kishi oʻzini tubanlikda emas, yuksakda deb hisoblaydi, unga kimdir jahl qilgan sari jazavasi qoʻziydi. Shu bois, jaholatga qarshi faqat maʼrifat bilan kurashish kerak. Bu Oʻzbekiston rahbariyati tanlagan eng toʻgʻri, oqilona va odilona yoʻldir.

Barchamizga maʼlumki, hozirgi kunda dunyo shiddat bilan oʻzgarib, insoniyatning taqdiri va kelajagiga tahdid solayotgan xavf-xatarlar kuchayib, dunyo miqyosida shafqatsiz raqobat, turli ziddiyatlar tobora avj olmoqda. Mana shunday bir sharoitda barqarorlikni saqlashda maʼnaviyat va maʼrifatga eʼtibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu haqda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev qayd etganidek: “Biz maʼnaviyat va maʼrifat ishini vatanparvarlik ishi, vijdon ishi, deb bilamiz. Vijdoni, maʼnaviyati bor inson Vatanni, albatta, yaxshi koʻradi. Vijdon, maʼnaviyat degani – xalqqa, Vatanga chin yurakdan xizmat qilish deganidir...”

Ma’rifat — kishilarning ongini, bilimini, madaniyatini oshirishga qaratilgan ta’lim-tarbiya. U tabiat, jamiyat va inson mohiyati haqidagi turli bilimlar, ma’lumotlar majmuasini ham bildiradi. Ma’rifat ilmu urfon ma’nosida ham ishlatiladi. Ma’rifat tushunchasi madaniyat, ma’naviyat tushunchalari bilan bog‘liq. Ma’rifat ma’naviy qaramlikni bartaraf qiladi, insonga kuch-qudrat ato etadi. U kishilarni jaholatdan qutqaradi, buzuvchi ishlardan qaytaradi, yaxshi xulq va odob egasi bo‘lishga yordam beradi. Ma’rifatli kishilardan tashkil topgan jamiyat ravnaq topadi, kelajagi porloq bo‘ladi. Ma’rifat — bilim va madaniyatning qo‘shma mazmuni bo‘lib, maorif uni yoyish vositasidir. Ma’rifatni hayotga singdirish maorif tizimi orqali amalga oshiriladi.

Jaholatga qarshi ma’rifat — bu jamiyatni rivojlantirish, insonlarni bilimli va tafakkurli qilish yo‘lidir. Ma’rifat orqali biz jaholatning salbiy ta’siridan qutulib, tinchlik, taraqqiyot va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlay olamiz. Shuning uchun har bir inson va jamiyat ma’rifatga intilishi lozim.